

MUSIQA BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTENI

5142000- MEHNAT TA'LIMI YUNALISHI

KASBIY TA'LIMNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

**«Mehnat ta'limi darslarida innovatsion
texnologiyalardan foydalanish uslublari»**

Bajardi:

Axadov Dilshod Abdurauf o'g'li

Ilmiy rahbar:

o'qit .A. Nuriddinov

Samarqand - 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA‘LIMI FAKULTETI

KASBIY TA‘LIMNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

5142000- MEHNAT TA‘LIMI YO‘NALISHI

**Mehnat ta‘limi darslarida innovatsion texnologiyalardan
foydalanish uslublari.**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Axadov Dilshod Abdurauf o‘g‘li

Ilmiy rahbar: o‘qit. Nuriddinov Asliddin

**Malakaviy bitiruv ishi Kasbiy ta‘limni o‘qitish metodikasi kafedrasida
bajarildi. Kafedraning _____ yil _____ maydagi majlisida muhokoma qilindi va
himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № _____)**

Kafedra mudiri: _____ dots. B.Muranov

**Malakaviy bitiruv ishi YADAK ning _____ yil _____ iyundagi majlisida himoya
qilindi va _____ foizga baholandi (boyonnoma № _____).**

YADAK raisi:

A‘zolari:

Samarqand-2015

Samarqand davlat universiteti musiqa badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
«Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi» kafedrasida majlisining
-bayonnomasidan

KO'CHIRMA

2015 yil

Qatnashdilar: Kafedra azolari 7 nafar.
Majlis raisi: dots. B.Muranov
Kotib: o'qit. A.Raximov

KUN TARTIBI:

Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi kafedrasida 2014-2015 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

ESHITILDI: 2014-2015 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri dots. B.Muranov tanishtirdi va quydagilarni bayon qildi:

2014-2015 o'quv yilida 5142000- Mehnat ta'limi yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi Axadov Dilshod Abdurauf o'g'li «Mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari» mavzusida bitiruv malakaviy ishini yozdi. Ilmiy rahbar o'qit.A. Nuriddinov Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. Shuning uchun so'zni bitiruvchi Axadov Dilshod Abdurauf o'g'liga bersak. U malakaviy bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirsa.

Axadov Dilshod Abdurauf ugli malakaviy bitiruv ishining mazmun-mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga katta o'qituvchi U.Utanov ukit A. Raximovlar savollar berishdi. Savollarga Axadov Dilshod Abdurauf o'g'li javob berdi.

Axadov Dilshod Abdurauf o'g'lining chiqishi, savol-javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAK ga himoyaga tavsiya etish haqida fikr-mulohazalar bildirdi.

QAROR QILINDI:

1. 5142000- Mehnat ta'limi yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Axadov Dilshod Abdurauf o'g'lining «Mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAK ga himoyaga tavsiya etilsin.
2. Axadov Dilshod Abdurauf uglining ushbu malakaviy bitiruv ishiga SamDU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida mudiri p.f.n.dots. Doniyev B.B . taqrizchi etib belgilansin.
3. Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Majlis raisi:
Kotib:

dots. B.Muranov
A.Raximov

A.Navoiy nomidagi SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
«Mehnat ta'limi» yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Axadov Dilshod Abdurauf o'g'lining
«Mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari»
nomli malakaviy bitiruv ishiga
T A Q R I Z

Hozirgi kunda o'quvchi talabalarning mehnat tarbiyasini, mehnat va kasb ta'limini, ularni kasb tanlashga yo'llashni takomillashtirish, yosh avlodni muntazam ijtimoiy foydali, unumli mehnatga jalb qilish masalalariga katta e'tibor berish talab etilmoqda, bu jamiyat taraqqiyotining bugungi kundagi talabi bo'lib, uni qondirish esa o'z navbatida ta'lim islohatlarida kuzda tutilganidek uzluksiz ta'lim tizimida o'rni beqiyosdir.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida aynan mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari o'qitishning samarali shakllari va usullari, uning maqsadi vazifalari to'g'risida, hamda mazmuni tuzilishi atroflicha tahlil qilingan, o'rganilgan va ahamiyatini yoritish tadqiqot maqsadi qilib berilgan.

Tadqiqot ishi tuzilishi jihatdan kirish, 2-bob, 4 band xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Tarkibiy tuzilmani qamrab olgan bo'lib ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi assolangan mavzuning ishlanganlik darajasi o'rganilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, shuningdek tadqiqot metodlari nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Ishning 1-2 chi boblarida mavzu muammosi bo'yicha ko'plab adabiyotlar, bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilgan.

Ikkinchi bobida asosan mehnat ta'limi uzviylashtirilgan o'quv dasturi 5-7 sinflarda mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari hamda mehnat ta'limini o'qitishning an'anaviy hamda noan'anaviy dars metodlari tahlili amalga oshirilgan va asoslangandir.

Ishning-bobi o'z ichiga o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishni baholash me'zonlari hamda turlari to'g'risidagi ma'lumotlar tajriba-sinov ishlari orqali asoslangan va u ishda o'z aksini topgandir.

Xulosa: Malakaviy bitiruv ishi mavzusi mazkur toifadagi tadqiqot ishlariga qo'yilgan talablarga javob berishni hisobga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi: SamDU Maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrası mudiri p.f.n.

dots. Doniev B.B

A.Navoiy nomidagi SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
«Mehnat ta'limi» yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Axadov Dilshod Abdurauf ugli

«Mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari»
nomli malakaviy bitiruv ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZALARI

Maktab o'quvchilari va kasb-hunar talabalariga beriladigan nazariy hamda amaliy ta'lim tarbiyaning birligi talin etilsa, ularni xalq xo'jaligi talablariga muvofiq mehnat va kasb korlik tayyorgarligi samarali bo'lishini hisobga olgan holda yoshlarimizni etuk mutaxassis qilib tarbiyalash maqsadida ushbu malakaviy bitiruv ishi, ya'ni «**Mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari**» mavzusi dolzarb topildi va tanlandi.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida aynan mehnat va kasb ta'limida yog'ochga ishlov berish bo'limini o'qitishning samarali shakllari va usullari, uning maqsadi vazifalari to'g'risida, hamda mazmuni tuzilishi atroflicha tahlil qilingan, o'rganilgan va ahamiyatini yoritish tadqiqot maqsadi qilib berilgan.

Tadqiqot ishi tuzilishi jihatdan kirish, 3-bob, 8 band xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Tarkibiy tuzilmani qamrab olgan bo'lib ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi assolangan mavzuning ishlanganlik darajasi o'rganilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, shuningdek tadqiqot metodlari nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Ishning 1- chi boblarida mavzu muammosi bo'yicha ko'plab adabiyotlar, bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilgan.

Ikkinchi bobida asosan mehnat ta'limi uzviylashtirilgan o'quv dasturi 5-7 sinflarda **Mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari** samarali shakl va uslublari hamda mehnat ta'limini o'qitishning an'anaviy hamda noan'anaviy dars metodlari tahlili amalga oshirilgan va asoslangandir.

Ishning 3-bobi o'z ichiga o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishni baholash me'zonlari hamda turlari to'g'risidagi tajriba-sinov ishlari orqali asoslangan va u ishda o'z aksini topgandir.

Xulosa: Malakaviy bitiruv ishi mavzusi mazkur toifadagi tadqiqot ishlariga qo'yilgan talablarga javob berishni hisobga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

o'qit. A. Nuriddinov

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
Musiqqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti

Yo'nalish_5142000-Mehnat ta'limi yo'nalishi

Kafedra "Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi"

«Tasdiqlayman»

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha
TOPSHIRIQ VARAQASI

1. Ijrochi: Axatov Dilshod Abdurauf ug'li
2. Mavzu: Mexnat ta'limi darslarida innavatsion texnologiyalardan foydalanish.

Mavzu universitet ilmiy kengashining «3»**oktabr 2014** - yildagi
2- sonli qarori bilan tasdiqlangan.

3. Mavzuning dolzarbligi, nazariy va Amaliy (Iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik, mehnat muhofazasi, hayot xavfsizligi va h.k.) ahamiyati

Bugungi kunda barcha umumta'lim fanlari kabi mehnat ta'limi fanini o'qitishda ham innavatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki innavatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tish o'quvchilarning bilim, kunikma va malakalarining yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi. Mehnat ta'limi darslarida qo'llaniladigan asbob – uskunalar dastgoxlar zamonaviylashib bormoqdaki, bu o'qituvchidan kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, slaydlar, multimediyali darsliklar yuratishni va undan foydalanishni talab qiladi.

4. Malakaviy bitiruv ishini bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy, o'quv-uslubiy va boshqa axborot manbalari (darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar matni, monografiya, ilmiy maqolalar va h.k.)

1. Karimov I. “ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent “ O'zbekiston”, 1997.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. Toshkent “ O'zbekiston”, 2008.
3. “Axborotlashtirish haqida” O'zbekiston respublikasi qonuni.-T.:1993y. 7- may
4. O'zbekiston respublikasi ta'lim soxasini axborotlashtirish konsepsiyasi. Loyixa “O'zbekiston o'qituvchi ” 2004 yil. 9- aprel.
5. Avliyago'lov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-: Toshkent. 2001 yil
6. Jumanov I. Mingboev N. S. Axborot texnologiyalari. 2- qism. Samarqand – 2005.
7. Maxkamov S. O'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar. - T.: “ o'qituvchi”, 1991 y

5. Malakaviy bitiruv ishi bo'yicha ma'lumotlar to'plam hamda tadqiqot ishlari olib borish manbalari va joylari (o'quv zali va xonalari, ilmiy kutubxona, laboratoriya, tashkilot, korxonalar, ilmiy yoki ta'lim muassasasi)

Samarqand davlat universiteti ilmiy kutubxonasi. o'quv zali. Internet tarmog'i. mehnat ta'limini o'qitishga oid o'quv adabiyotlari.

6. Malakaviy bitiruv ishini tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejasi:

№	Ishning mazmuni	Taxminiy hajm	Ijro muddati	Izoh
1	Masalaning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligi, echilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalalarning mohiyatini va maqsadini yoritib berish (kirish qismi)	3-4 bet	Sentabr Oktabr Noyabr	

2	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (yordamchi mulohaza va faktlar)	10-12 bet	Noyabr Dekabr	
3	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari, natijalarni tahlil qilish va tartibga solish. (paragraf, bob, bo'lim yoki qismlar bo'yicha)	30-40 bet	Yanvar	
4	Olingan natijalarning nazariy va Amaliy ahamiyati bo'yicha xulosa berish hamda tadbqiq sanalari va usullariga oid takliflar tayyorlash	8-10 bet	Fevral	
5	Bitiruv ishini rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko'rgazmali vositalar (jadvallar, rasmlar, grafiklar, diagrammalar, maketlar, stend va h.k.) tayyorlash	6-7 bet	Mart aprel	
6	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik ko'rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash.	4-5 bet	May	
7	Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha qo'shimcha masalalar .		Iyun	

Maslahatchi	Bo'limlar	Topshiriqlar	Izoh

Ilmiy rahbar _____ o'qit. A. Nuriddinov

Kafedra mudiri _____ dots. B. Muranov

Topshiriqni bajarishga oldim: _____ D. Axatov

« __ » _____ 2014 - yil

Mavzu: “Mehnat ta’limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari”

R E J A:

Kirish

I-bob. Ta’lim jarayonini tashkil etishda inovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.

- I.1. Ta’lim jarayonini tashkil etishda inovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi.
- I.2. Ta’lim jarayonini tashkil etishda inovatsion texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

II-bob. Mehnat ta’limi darslarida hamkorlikda o’qitish texnologiyalarini qo’llash metodikasi.

II.1 Mehnat ta’limi darslarida hamkorlikda o’qitish texnologiyalarini bosqichlari va vazifalari.

II.2. Mehnat ta’limi darslarida hamkorlikda o’qitish texnologiyalarini qo’llash metodikasi.

X U L O S A

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati

K I R I S H

Yosh avlodni har tomonlama etuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvarshaxslar bo'lib etishini ta'minlash yo'lida amalgam oshirilayotgan o'lkan bunyodkorlik ishlariningeng asosiy bo'g'ini sifatida pedagog xodimlarning yuqoriy ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo'yicha yuksak mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlash yuzasidan zarur chora tadbirlarni amalgam oshirish hisoblanadi.

Bu masalaga davlatimiz mustaqilligining yillaridan boshlabjiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Buni yurtboshimiz I. Karimov quyidagi fikrlarida yaqqol ifoda etilgan:

“Maktab ta'lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi. Asosiy qonunimizda belgilah qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, bugun xalqimizningishtiroki va qo'llab-quvvatlanishi talab qiladigan umumiy masaladir,..” (I. Karimov. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008. 61-bet)

Bugungi kunda o'quvchilarning ijodiy va intellektual saloxiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, fanni yanada rivojlantirish hamda iste'dodli iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga faol jalb etishga barcha e'tibor qaratilgan va biz bo'lajak o'qituvchilar oldida hukumat va davlat tomonidan katta ishonch bildirib vazifalar qo'yilmoqda.

Demak ta'lim-tarbiya jarayonida axborot va zamonaviy o'qitish texnologiyalari joriy etilishi ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda asosiy zamina bo'lib xizmat qiladi.

Biz tanlagan mavzu – “Mehnat ta'limi darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini qo'llash metodikasi” ni **dolzarbligi** ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyalardan foydalanish o'quvchi- talabalarga axborot vositalaridan foydalanish, mustaqil fikrini sinf- jamoa oldiga bayon etilishi, nostandart tanqidiy tafakkur qilishga o'rgatish, mustaqil ravishda kitob bilan ishlash, har bir masala yuzasidan o'z mustaqil fikrini bayon qila olishi, ijodiy va intellektual saloxiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim samaradorligini oshirish, o'zlashtirish ko'rsatkicini ko'tarishdan iboratdir.

Bitiruv ishimizning **asosiy maqsadi** an'anaviy ta'lim modelidan nostandart ta'lim modeliga o'tib, oquvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, har bir muammo yuzasidan o'z nuqtai nazarini bayon eta bilish va asoslab berishi, yangi g'oyalar ustida ishlash va g'oyalarni generasiya qilishga o'rgatishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatigan maqsad asosida belgilangan rejaga muvafiq quyidagi **vazifalarni** belgilab oldik:

1. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil etish orqali ta'lim jarayonida qo'llaydigan hamkorlikda o'qitish texnologiyalarga oid materiallarni umumlashtirib berish.
2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalar asosida olib berilgan mualliflar tadqiqot natijalarini qisqacha sharxlab berish.
3. O'quvchilar guruhida tadqiqot o'tkazish hamda natijalarini tahlil etish.
4. Mehnat ta'limi darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalardan foydalanishga oid ayrim uslubiy tavsiyalar berish kabilardir.

Bitiruv ishlarimizni **obyekti** qilib o'quv faoliyati jaroyonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro birgalikdagi faoliyati olindi.

Bitiruv ishimizning **predmeti** sifatida ta'lim jarayonida ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash metodikasi olindi.

Bitiruv ishimizni yozishdan oldin o'z oldimizga quyidagi **ilmiy taxmin (gipoteza)** ni qo'ydik: agar;

- o'qituvchi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etsa;
- o'qituvchi zamonaviy yuqori samarali metodlarini tanlay bilsa;
- o'quv xonasida mashg'ulot uchun zarur shart-sharoit yaratilsa;
- o'quvchilar tayyorgarlik darajasdi oldindan aniqlansa;
- DTS talablari bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsad toliq erishini ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan ta'lim texnologiyasi muntazam foydalanilsa kelajakda sog'lom, ijodkor, ma'nan etuk va barkamol shaxsni tarbiyalash mumkin.

Bitiruv ishini yozish jarayonida ta'limning hamkorlikda o'qitish texnologiyalari interfaol usullardan "Uch pog'onali interv'yu", "Davra suxbati", "Muammolar echishini tashkil qilish" va boshqa usullardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish,

o'zlashtirish ko'rsatkicini ko'tarishga harakat qildik va bu metodlar yordamida ishimizni muhim amaliy tamoni aniqladik.

Biz **tadqiqotimizni** Samarqand viloyati Samarqand shahar

1 - Sonli pedagogika kollejida uch

bosqichda amalga oshirdik:

Birinchi bosqichda ta'limjarayonini an'anaviy modeli asosida tashkil qildik, **ikkinchi bosqichda** ta'limjarayonini noan'anaviy modeli asosida tashkil etib o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlandi, **uchinchi bosqichda** barcha metod va usullar orqali olingan tadqiqot natijalari tekshirilib ko'rildi va xulosalandi.

Bitiruv ishimizning mazmuni kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Ishimizda mashhur pedagoglar P.Bespal'ko, N.Talizina, N.Saidaxmedov, M.Ochilov, O'.Tolipov, J.Yo'doshev, S.Usmonov va boshqalarning ta'lim jarayonida inovatsion texnobogiyalari foydalanilishi haqidagi fikr muloxazalarini bitiruv ishimiz uchun ijtimoiy nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

I-bob. Mehnat ta'limi darslarini tashkil etishda inovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.

I.1. Mehnat ta'limi darslarini tashkil etishda inovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi.

Innovatsion texnologiyalar - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy baxs-munozaralar o'tkazish, shu materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'psatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichiq guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mahg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, uz fikrini bayon qilish, uni asoslagan holla himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, baxs olib borish ko'nikmalari shaqllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emosional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya — borliqning murakkab to'zilgan sohasini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlaiishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja qo'yidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham 11 foydalanadi, jumladan;

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq, fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustaxkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi okibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollash-tirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta to'zish, yoritib berish, sharxlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilim-laridan fakat an'anaviy emas, noa'naviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni tutri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarniig ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqdrish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taksimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy kayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish. tizimlashtirish, kombinasiyalashtirish, yaratish, to'zish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-ximipshi ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlar ga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq, fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, ulchash, nazorat qilish, asoslash, ma'ysullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Innovatsion texnologiyalar ko'p turli bo'lib ularning hammasi ham har qanday irogressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mahg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq, bo'lib, ular orasida o'qitishning usul na metodlari xal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari uzaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni taplashda turli sharo-itlar, o'qitilayotgan fanning harakteri, bolalarning yosh xususyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etish ga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangap. Olim uzining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini o'qtirgan.¹

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy krnunlariga muvofiqdigini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayxon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, al-Xorazmiy) va xokazolardan iboratdir.

Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchi-lar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiliy tafakko'rni rivojlantirish maqsadini kuzlaganlar. Bur'oniddin Zarnud-jiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga kdrab boradi. Akl — faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish ko'rolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bulishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy akl tushunchasi taqdirlash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chikdrish mumkinki, inson xissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlariin tanlash juda muximdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4—5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars buyicha yetarli darajada o'zlashtirmagaiini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiboripi eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafeil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik kilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashgulotlardagi nuqsonlarini paykash va shu zaxoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muxim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tikodiga, e'tikodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakat-ga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish-o'rganish diqqat-e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir akl, mustaxkam iroda, tinik tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga kiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak?

Xozirgi zamon ta'limi fakat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi xal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, shularni hosildor yerlarga va bog'roglarga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bulishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning hamma sohalarida judakatta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan soxasi bo'yicha navbatdagi qayta ko'rilishlar va erishilgan yutuqdar bilan keng tanishtirishi keraq Bu ishni o'quvchilarga mos shaklda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishdir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muxabbat uyg'otish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustqkil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bulishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va xal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarililigi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini urganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy xodisalarning muvofiqligi.

I.2. Mehnat ta'limi darslarini tashkil etishda inovatsion texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

Hozir interfaol mahg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmokda. Kelgusida esa bu usuldar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga usib utishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul zqamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli — har bir o'qituvchi tomoni-dan mavjud vositalar va uz imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda 5qar bir o'quvlovchi uz motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravigada turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mahg'ulot olib borishni ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi uz motivlari va intellektual darajasiga ega x;olda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mahg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni urganish asosida bu mahg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'psatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchi-larga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular uz moxiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatiishni nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga qo'yidagilar kiradi: o'qituvchilardan interfaol mahg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mahg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ma'ruzachining qamda ishtirokchilarning ish joyi qo'lay bo'lishini ta'minlash;
- sanitariya-gigiyena me'yorlari bo'zilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;

—nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

—DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq. bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

—interfaol mahg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

—interfaol mahg'ulotning qar bir elementa urganilayotgan mavzu bilan bogliq bo'lishini ta'minlash;

—mahg'ulotlar mavzusi va mazmunini sunggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

—zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;

—o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga moye darajadagi interfaol mahg'ulot-larni o'tkazish;

—interfaol mahg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

— mavzuni sayoz bilishi;

—nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

—o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

—kuzatuvchanliq vaqtning utishini his qilish, U ni to'g'ri taksimlash ko'nikmasi yetishmasligi;

—tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

—o'quvchiga xayrixoxliq samimiyliq u bilan x.amkor-likda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

—mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

O'quvchilarga tegishli omillar:

—davomat pastligi, mahg'ulotga kechiqib kelishi;

—zarur tayyorgarliksiz kelishi;

- ilmiy atamalarni bilmasligi;
- diqqatni jamlay olmasligi;
- eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;
- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mahg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli

omillar:

- ta'lim vositalarining yetishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz qolda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;
- mashulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq, vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;
- vositalarni mahg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;
- vositalar dan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Inovatsion texnologiyalarning afzalliklari

- o'qitish mazunini yaxshi o'xlashtiyishga olib kelishi;
- o'z vaqrida aloqalarni ta'minlanishi;
- tushunchalarni amaliyatga qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlarini taklif etilishi;
- motivasiyani yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialni yaxshi eslab qolishi;
- muloqotga kirisdhish ko'nikmasini takomillashishi;
- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- o'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosibati;
- nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay balki, tanqidiy va mantiqiy fikrlarning rivojlanishi;
- muammolar yechish ko'nikmalarini shakllanishi.

Inovatsion texnologiyalarning kamchiliklari

- jo'p vaqt talab etilishi;
- o'quvchilar har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
- juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolini past bo'lishi;
- "kuchsiz" o'quvchilar bo'lganligi sababli "kuchli" o'quvchilarning ham past baholishi

II-bob. Mehnat ta'limi darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini qo'llash metodikasi.

II.1 Mehnat ta'limi darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini bosqichlari va vazifalari.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari **hamkorlik pedagogikasi** asosida shakllangan bo'lib, u an'anaviy pedagogikadan qo'yidagicha farqlanadi:

An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning subyekt, o'quvchi esa obyekt deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi uz o'quv faoliyatining subyekt sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdust, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar.

Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o'quvchilar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham urnatiladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitish qo'yidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

—o'quvchining urganish jarayonini boyitadi;

—o'quvchilarga ular o'rtasida tassim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar tuplamini beradi;

—o'quvchilarda materialni urganishga ishtiyok uygotadi;

—o'quvchilarning uz shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

—axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

—o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

— turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni o'ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo'llash tizimi mavjud bo'lib, quyida shu mahg'ulotlardan ayrim namunalarni ko'rsatib utamiz:

- uch poronali intervyu;
- davra suxbati;
- ruyxat tuzish;
- muammolar yechishni tashkil qilish;
- bir daqiqalik ishlar;
- juftlik izoxlari;
- muammoni junatish;
- baholash chizigi;
- kam uchraydigan birlik
- jamoaga kutuvi;
- ikki qismli kundaliq
- o'zaro savol yo'llash.

Bu mahg'ulot turlarining ko'pida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish, ularga rollar va vazifalar taksim qilish ko'zda tutiladi. Bunda qo'yidagilarni hisobga olinadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedarogik jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni aqldantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suxbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani kurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni uz ichiga oladi.

Hamkorlikda o'qitish mahg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi-kichik guruh, o'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda

ishlash), kichiq guruh-kichiq guruh- kichiq guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi.

Hamkorlikda o'qitish-bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, uquvchilarning ham o'zaro qo'llab-kuvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va inter-faol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichiq guruhlarda ishlashadi va uzlariga hamda uz guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi. Umuman, hamkorlikda o'qitish metodlari qo'yidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.

2. O'quvchilar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichiq guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki urganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy kabul qilinadigan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O'quvchilar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki urganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning bir-birlariga kumaqlashishlari talab etilishini qisobga olgan holla to'zilgan bo'ladi.

5. O'quvchilar uz ishlari iatijasiga yoki boshqacha ayt-ganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardirdar.

Hamkorlikda o'qitish nima uchun kerak?

Hamkorlikda o'qitish qo'yidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

—o'quvchining urganish jarayonini boyitadi;

—o'quvchilarga ular o'rtasida tassim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar tuplamini beradi;

—o'quvchilarda materialni urganishga ishtiyok uygotadi;

—o'quvchilarning uz shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

—axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

—o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

— turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni o'ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo'llash tizimi mavjud bo'lib, quyida shu mahg'ulotlardan ayrim namunalarni ko'rsatib utamiz:

uch poronali intervyu;

davra suxbati;

ruyxat tuzish;

muammolar yechishni tashkil qilish;

bir daqiqalik ishlar;

juftlik izoxlari;

muammoni junatish;

baholash chizigi;

kam uchraydigan birlik

jamo'a kutuvi;

ikki qismli kundaliq

o'zaro savol yo'llash.

Bu mahg'ulot turlarining ko'pida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish, ularga rollar va vazifalar taksim qilish ko'zda tutiladi. Bunda qo'yidagilarni hisobga olinadi.

Kichik guruh a'zolari bajaradigan rollar va vazifalar

Siz o'quvchilarni guruhlariga ajratganingizda guruh a'zolariga ular ijro etadigan rollarni taksimlaysiz yoki ularga tanlash huquqini berasiz. Rollar bo'yicha bajariladigan faoliyatga qarab o'quvchilar rollarni o'zaro almashishni xoxlashlari mumkin. Kichik guruh a'zolari uchun rollar va vazifalar qo'yidagicha bo'lishi mumkin.

Yetakchi — guruh oldiga qo'yilgan topshiriqning bajarilishini nazorat qiladi va guruh faoliyati uchun mas'ul bo'ladi. U vazifalarni bajarishda guruhning barcha a'zolari ishtirok etishini, ta'lim olishini uyushtiradi va guruhning boshqa a'zolari tomonidan xurmat qilinishiga ishonch hosil qilishi kerak bo'ladi.

Yetakchi, shuningdeq guruhni topshiriqni bajarish ko'nikmasini beradigan elementlarning guruh a'zolari tomonidan o'zlashtirilishi darajasini ham nazorat qilib borishi mumkin.

Hujjatlar **yurituvchi** yoki yozib **boruvchi (kotib(a))** — har kungi yigirma jild va guruhni fayllarni tuplab, guruhning har bir a'zosi tomonidan xissa qo'shilgan barcha guruhni ishlar yozuvlari va materiallarni saqlab boradi.

Yozib boruvchi har bir muammo yuzasidan topilgan yechimni yozadi va yigadi. Guruh sinf oldida ogzaki taqdimot o'tkazishi uchun materiallarni tayyorlashi ham mumkin.

Taqdimotchi yoki ma'ruza qiluvchi — guruhni ish yoki xulosalar turrisida sinf oldida ogzaki taqdimot o'tkazadi va savollarga javoblar beradi.

Monitor yoki vaqt belgilovchi — guruh ishlayotgan ish joyining axvoli tartibli bo'lishiga javobgar. Shuningdeq U «taymkiper» vazifasini bajarib, har bir vazifa bo'yicha PFUxga berilgan vaqtni belgilaydi va muntazam nazorat qilib boradi.

Zaxiradagi ishtirokchi (guruhlarda beshtagacha ishtirokchi bo'lsa) — guruhda yetakchining assistenti vazifasini bajaradi va guruq ishida vaqtincha katnashmayotgan ishtirokchining rolini o'ziga oladi.

Uch pog'onali intervyu

Uch pog'onali intervyu «muzyorar» sifatida mashg'ulot yoki tadbir boshlanishida, jamoa a'zolarini bir-birlari bilan tanishtirish uchun yoki o'quvchilar orasida rollarni taksimlash, turli maxsulot va buyumlar bilan chukur tanishtirish maqsadida ishlatilishi mumkin.

Rollarni o'qituvchi taqsimlaydi yoki o'quvchilarning uzlari tanlashi mumkin. O'quvchilarga intervyu savollarini yoki «topilishi» kerak bo'lgan axborotni tarkatib

chiqish ham mumkin. Misol uchun, uxsuvchi A o'quvchi B ga bir necha daqiqa vaqt ichida savollar beradi va diqqat bilan eshitib, intervyu oladi.

Vaqt tugagani xakida o'qituvchining ishorasidan sung har bir juftlik boshqa juftlikka ugiriladi, qamda turt kishidan iborat kichiq guruh. shakllantiriladi. Guruhning har bir a'zosi uz sherigi to'g'risidagi eng qiziq lavqalarni ifodalab, tanishtiradi.

Davra suxbati

Davra suxbati usuli aqliy xujum yo'li bilan royalarni tuplash, bitta savol, savollar guruhi yoki muammoga ko'p sonli javoblarni umumlashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

O'qituvchida o'quvchilarga beriladigan savol yoki muammo yechimining kaliti bo'ladi. Bu shunday savol yoki muammo bo'lishi kerakki, unga ko'p (bir nechta) «tutri» javoblar berilishi mumkin bulsin. Savolni dars mavzusiga boglash, lekin har bir ishtirokchi uz qissasini qo'sha olishi uchun uni sodld shaklda tayyorlash kerak:

1. O'qituvchi savol beradi va vaqtni belgilaydi.
2. Har bir guruhga bir dona ruchka va bir varaq qog'oz beriladi.
3. Birinchi ishtirokchi bitta javobni yozadi va javobni baland ovozda o'qib beradi.

4. Birinchi ishtirokchi bitta javob yozilgan qog'oz bilan ruchkani chai tarafida utirgan guruhdoshiga uzatadi va keyin usha ishtirokchi qog'ozga uz javobini yozadi va x.q

5. Ajratilgan vaqt tugaguncha ish tuxtatilmaydi.
6. O'quvchilar jarayon vaqtida «taslim buldim» so'zini aytishlari mumkin.
7. Ajratilgan vaqt tugagandan sung ish tuxtatiladi.

Vaqt tugashi bilan o'quvchilar uz ruyxatlari bilan nshma qilish yuzasidan, ya'ni ular turli javoblarni muxokama qilishni davom ettirish yoki sinfnig boshqa a'zolari o'rtasida uz ruyxatlari bilan tajriba almashishni yoki o'qituvchining taqlifi bo'yicha ishni davom ettiradilar.

Ruyxat tuzish

Ruyxat tuzish aqliy xujum texnikasi bo'lib, o'quvchilarning bir masala bo'yicha har tomonlama fikrlab, javob variantlarini ruyxat shaklida yezish texnikasini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin.

Ruyxat tuzishda o'quvchilardan u yoki bu fikrni yoritish yoki ta'riflab berilgan so'zlarni yozish talab etiladi. O'quvchilar bu ishni tuxtashishi bilan bu ruyxatlarni guruxiy va ochiq muqokamalarda ishlatish mumkin.

Bunda o'quvchilardan guruh bo'lib ruyxatlarni muxokama qilish va variantlar orasidan barcha o'quvchilar rozi bo'lgan bitta variantni tanlab olishlarini surash mumkin.

Muammolar yechishni tashkil qilish

Muammolar yechishni tashkil qilishda ko'pgina hamkorlikda o'qitish usullaridan qo'shimcha sifatida uyg'unlash-girib foydalanish, masalan, aqliy xujum yoki o'quvchilar ganlagan boshqa usuldan foydalanish mumkin bo'lib, kuyi-dagi boskrqchlarni uz ichiga oladi:

1 Har bir kichiq guruh a'zosiga bitta rakam yoki rangli yeki biror belgili varakcha (karta) tarkatiladi. Bunda har bir guruhdagi a'zolarida har xil rakamlar yoki karta oulishi ta'minlanishi zarur.

2.Guruhdada topshiriqni muxokama qiling.

3.dar bir ishtirokchi javob berish uchun tayyor bo'lishi, uz guruhi a'zolarining javoblarini yaxshi tushunishi, moxiyatini anglashi, guruhning boshqa a'zolari kumagisiz javob bera odishi keraq

4.Har bir guruhdan kimnidir tanlab javob berishini surang. Javob beruvchi ishtirokchini uning razami yoki kartasi asosida chakiring.

Bir daqiqalik ishlar

Har bir o'quvchidan qo'yidagi savollarga javob berishini surang:

Bugun Siz o'zlashtirgan mavzular orasidan eng muxim va foydalisi qaysi?

Siz bermoqchi bo'lgan qaysi ikki savol xozirgacha noaniq?

Siz nima to'g'risida ko'prok bilimga ega bo'lishni xoxlaysiz?

Har bir o'quvchiga bir daqiqadan vaqt ajrating va vaqtni kuzatib boring. Bu ish Sizga ularning diqqatini mazmunga jalb etish va o'qituvchi faoliyatiga baholari sifatidagi kayta axborotni bilish uchun yordam beradi.

Siz bir daqiqalik ishlar usulini kun tahlili sifatida hamda ikkinchi kunning boshlanishida ham ishlatishingiz mumkin.

Juftlik izoxlari

O'quvchilar juftlikka bo'linib, bitta makola matni yoki ayrim qismlari mazmunini urganishadi va o'qish yoki fikrlash uchun ikki qismli kundaliklarini bir-birlari bilan almashishadi.

Unda o'quvchilar o'xshash fikrlar, goyalar va matn maz-muni to'g'risida o'zaro muxokama yuritishadi. O'quvchilar hamkorlikda makolaning yoki ayrim qismlining mazmuni bo'yicha fikrlarni umumlashtiradigan izoxlar tayyorlashadi.

Muammoni junatish

Muammoni junatish mashqi biror mavzu bo'yicha axborotga alokador muammoning mavjud yechimini yoki unga te- materialni muxokama qilish uchun ishlatilishi mum-

